

## TA'LIMiy O'YIN FAOLIYATIDA NOANANAVIY USULLAR

Xamidova Gulnora Tilovovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri

30 DMTT tarbiyachisi

+99891-465-03-75

[hgulnora87@gmail.com](mailto:hgulnora87@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.11101390>

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ta'limiy o'yin faoliyatida noan'anaviy usullardan foydalanish orqali samarali natijaga erishish yo'llari haqida yoritib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** didaktik, ta'lim, o'yin, faoliyat, tarbiyalanuvchi, bilim, qiziqish.

Ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli ta'limiy faoliyat shaklida qo'llaniladi. Ushbu ta'limiy faoliyatda tarbiyalanuvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli **tarbiyalanuvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan ta'limiy faoliyati didaktik o'yinli faoliyatlar** deb ataladi.

**Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:**

- ❖ o'yin faoliyati orqali tarbiyalanuvchilarning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- ❖ o'yin davomida tarbiyalanuvchilarning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- ❖ tarbiyalanuvchilarning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- ❖ hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- ❖ o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- ❖ tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- ❖ tarbiyalanuvchilar uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- ❖ o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni tarbiyalanuvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

Tarbiyachi-pedagog avval tarbiyalanuvchilarning individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki tarbiyalanuvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.



Ta'limiy o'yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin tempi va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

#### **Ta'limiy o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:**

- a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan;
- b) stol-bosma;
- d) og'zaki so'z o'yinlar.

Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Stol-bosma o'yinlar bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, sintez, umumlashtirish,) tavsiflash o'stirish imkonini beruvchi o'yin usulidir. **Bu o'yin turiga** a) loto; b) juft rasmlar; d) domino; e) labirint kiradi.

Ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim maqsadiga erishish quroli, ya'ni oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta'lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

**Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir:** kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanganligi. O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qiladi.

#### **References:**

1. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/2269/html/70169/O'yinli%20texnologiyalar.htm>
2. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/3500/2547>

3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-yin-ta-lim-jarayonini-tashkil-etishning-pedagogik-vositasi-sifatida>

INNOVATIVE  
ACADEMY